



TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIGINI TARTIBGA SOLISHNING ZARURIYATI

THE NECESSITY OF REGULATING THE LIQUIDITY OF COMMERCIAL BANKS

¹Tursunpo'latov Sohibnazar
Kasimjon o'g'li

¹Toshkent xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi.
ORCID: 0009-0007-7404-3723, G-mail: sokhibtiu@gmail.com

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Maqolada tijorat banklari likvidligini tartibga solishning iqtisodiy ahamiyati hamda uni ta'minlashdagi asosiy omillar yoritilgan. Likvidlik tushunchasi turli ilmiy manbalar asosida tahlil qilinib, bank tizimidagi likvidlikni baholash ko'rsatkichlari va ularning vazifalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, likvidlikni ta'minlashning bank moliyaviy barqarorligi va uzoq muddatli rivojlanishidagi o'rni, mijozlar ishonchini oshirish, jamg'arma mablag'larini jalb qilish va investitsiya faoliyatidagi ahamiyati tahlil qilingan.

Eng. - The article explores the economic significance of regulating the liquidity of commercial banks and highlights the key factors that ensure its stability. The concept of liquidity is analyzed based on various academic sources, and the indicators used to assess liquidity within the banking system, along with their functions, are examined. Furthermore, the study discusses the role of liquidity in ensuring the financial stability and long-term development of banks, as well as its importance in strengthening customer confidence, attracting deposit funds, and supporting investment activities.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ tijorat banki, likvidlik, moliyaviy barqarorlik, jamg'arma mablag'lari, monetar siyosat, majburiy zaxira, kredit riski, iqtisodiy beqarorlik, to'lov qobiliyati.

❖ commercial banking, liquidity, financial stability, savings, monetary policy, reserve requirements, credit risk, economic instability, solvency.

Kirish.

Har qanday milliy iqtisodiyotning barqaror va uzoq muddatli rivojlanishida bank tizimining samarali faoliyati hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bank tizimi orqali iqtisodiyotning real sektoriga moliyaviy resurslar yo'naltiriladi, pul aylanmasi tartibga solinadi, investitsiya faolligi rag'batlantiriladi hamda mamlakatdagi umumiy makroiqtisodiy barqarorlik ta'minlanadi. Ayniqsa, tijorat banklari mamlakat moliyaviy infratuzilmasida markaziy o'rinni egallab, aholi va tadbirkorlik subyektlarining omonatlarini jalb etish, kreditlar ajratish va to'lov xizmatlarini

ko'rsatish orqali iqtisodiy jarayonlarning uzluksizligini ta'minlaydi.

Ushbu jarayonda bank faoliyatining eng muhim jihatlaridan biri bu — likvidlik darajasini ta'minlashdir. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, likvidlik muammolariga duch kelgan banklar nafaqat o'z mijozlarini yo'qotgan, balki moliya bozorining barqarorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatgan. 2008-yilgi global moliyaviy inqiroz davrida kuzatilgan likvidlik tanqisligi ko'plab banklarning moliyaviy barqarorligini izdan chiqarib, ularning bankrot bo'lishi yoki majburiyatlarini bajara olmasligiga olib kelgan.

Shu bois, likvidlikning yetarli darajada ta'minlanishini kafolatlash Markaziy banklar va moliyaviy regulyatorlar uchun ustuvor vazifa hisoblanadi. Bank likvidligini baholashda joriy, tezkor va umumiy likvidlik koeffitsientlari, majburiy zaxira me'yorlari, likvid aktivlar ulushi kabi moliyaviy ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ushbu ko'rsatkichlarni muntazam tahlil qilish va ular asosida qarorlar qabul qilish bank faoliyatining barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Tijorat banklari likvidligi moliyaviy tizim barqarorligining asosiy omillaridan biri bo'lib, bankning majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarish qobiliyatini anglatadi. Likvidligi yuqori bo'lgan banklar mijozlar oldidagi talablarni tezda qondirishi, moliyaviy resurslarni samarali boshqarishi va bozordagi raqobat sharoitida o'z pozitsiyasini mustahkamlashi mumkin. Demak, likvidlik – bank ishonchliligi va barqarorligining eng muhim ko'rsatkichidir [1].

Ilmiy manbalarda likvidlik tushunchasi turlicha izohlangan. Masalan, F.S. Mishkin likvidlikni bank aktivlari va passivlarini shunday boshqarish jarayoni deb ta'riflaydiki, bunda bank mijozlar talabini o'z vaqtida qondirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ushbu olim ta'kidlaganidek, likvidlik yetishmovchiligi bankning moliyaviy barqarorligiga jiddiy xavf tug'diradi, chunki likvid aktivlar yetishmovchiligi mijozlar talabini qondirolmazlikka olib keladi va bu bankka bo'lgan ishonchni pasaytiradi [2].

R. Cousins fikriga ko'ra, likvidlik – bu moliyaviy resurslarni tez mobilizatsiya qilish va uzluksiz to'lov qobiliyatini ta'minlash imkoniyatidir [3]. Unga ko'ra, bankning barqaror rivojlanishini ta'minlashda likvid aktivlarning umumiy aktivlar tarkibidagi ulushi va ularning pulga tez aylanishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Aynan likvid aktivlar bankning to'lov qobiliyatining asosiy kafolati

hisoblanadi. Majburiy zaxira me'yori esa Markaziy bank tomonidan belgilanib, bank likvidligini davlat darajasida kafolatlaydi [4]. Bundan tashqari, likvid aktivlar ulushi ko'rsatkichi ham bank aktivlarining tez pulga aylanish darajasini aks ettirib, likvidlik tahlillarida muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda bir qator olimlar likvidlikning bank moliyaviy barqarorligidagi o'rnini tahlil qilgan. J. Diamond va P. Dybvig tadqiqotlarida likvidlikni boshqarish bank ishonchini oshirishdagi asosiy omil sifatida baholangan [6]. J. Berger va C. Bouwman tadqiqotlarida esa likvidlikning yuqori darajada ta'minlanishi bank kapitali barqarorligini oshirishi, shuningdek, umumiy moliyaviy barqarorlikni mustahkamlovchi omil sifatida namoyon bo'lishi ta'kidlangan [7].

B.X. Xamdamov fikricha, likvidlik darajasi yetarli bo'lmagan banklar mijozlar ishonchini yo'qotish xavfi ostida qoladi, chunki xizmat ko'rsatishdagi kechikishlar va pul mablag'larini qaytarishdagi uzilishlar omonatchilar tomonidan salbiy baholanadi [5].

Tijorat banklari uchun jamg'arma mablag'larini jalb qilish likvidlik darajasiga chambarchas bog'liq. Demirgüç-Kunt va Kane tadqiqotlarida ta'kidlanganidek, likvidligi yuqori bo'lgan banklar depozit bazasini barqaror saqlab qolish va yangi omonatchilarni jalb etishda yuqori samaradorlikka ega bo'ladi [8]. Chunki mijozlar uchun bankning ishonchliligi, avvalo, uning to'lov qobiliyatiga bog'liq. Aksincha, likvidlik past bo'lsa, mijozlar omonatlarini qaytarib olishga shoshiladi va bu bankning mablag' jalb qilish imkoniyatlarini cheklaydi.

Borio va Zhu fikriga ko'ra, likvidligi past bo'lgan banklar depozitlar oqimini jalb qilish uchun yuqori foiz stavkalarini taklif qilgan taqdirda ham ularning moliyaviy barqarorligi xavf ostida qoladi. Chunki yuqori foizlar bank xarajatlarini oshiradi va moliyaviy holatni yomonlashtiradi [9].

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotning nazariy jihatlarini o'rganishda ilmiy tahlil va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Bu orqali bank likvidligi tushunchasiga oid turli iqtisodchi olimlarning qarashlari o'rganilib, umumiy xulosalar shakllantirildi. Bunda bank likvidligi nafaqat to'lovga layoqatlilik darajasi sifatida, balki butun moliyaviy tizimning barqarorligi va ishonchliligining muhim ko'rsatkichi sifatida talqin etildi.

Shuningdek, induktiv va deduktiv yondashuvlar asosida tahlillar olib borildi. Induktiv yondashuv yordamida amaliyotda kuzatilgan holatlarni umumlashtirish orqali nazariy xulosalar chiqarildi, deduktiv yondashuv orqali esa mavjud nazariy qarashlar amaliy bank tizimi holatiga tadbiiq qilinib, ularning mosligi baholandi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Likvidlik — bu bankning majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarish qobiliyati bo'lib, u bankning ishonchliligi, moliyaviy barqarorligi hamda bozordagi raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlardan biri sanaladi. Yetarli likvidlikning ta'minlanmasligi bank run'i (ya'ni, mijozlarning bankning to'lovga qobiliyatsiz bo'lish xavfi tufayli omonatlarini ommaviy ravishda yechib olishga harakat qilishi), kredit faoliyatining susayishi va hatto bankrotlik xavfi kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, tijorat banklari likvidligini samarali boshqarish nafaqat bank tizimi, balki makroiqtisodiy darajada ham dolzarb masala sifatida qaraladi.

Tijorat banklari likvidligi bankning moliyaviy barqarorligi va uzoq muddatli rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan moliyaviy ko'rsatkichlardan biridir. Yetarli likvidlik bankning moliyaviy resurslarini samarali taqsimlash, mijozlar ishonchini saqlash va iqtisodiy beqarorlik sharoitida ham uzluksiz faoliyat yuritish imkonini beradi. Shu bois, likvidlik bank

faoliyatida strategik ahamiyatga ega bo'lib, uning moliyaviy barqarorligi va uzoq muddatli rivojlanishi uchun asosiy omil sifatida e'tirof etiladi.

Bank likvidligini baholashda bir qator moliyaviy ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Joriy likvidlik koeffitsienti bankning qisqa muddatli majburiyatlarini tez sotiladigan aktivlar hisobiga qoplash imkoniyatini aks ettiradi. Umumiy likvidlik koeffitsienti esa barcha likvid aktivlarni umumiy majburiyatlarga nisbatda baholaydi va bankning uzoq muddatli barqarorlik darajasini ko'rsatadi. Tezkor likvidlik koeffitsienti esa pul mablag'lari va tez sotiladigan qimmatli qog'ozlarning joriy majburiyatlarga nisbati orqali bank balansidagi eng likvid, ya'ni qisqa muddatda mobilizatsiya qilinishi mumkin bo'lgan aktivlar asosida to'lovga qobiliyatlilik darajasini baholash imkonini beradi.

Demak, tijorat banklari likvidligi bank faoliyati samaradorligining asosiy mezonini hisoblanadi. Uning yuqori darajada ta'minlanishi bankka bo'lgan ishonchni oshiradi va moliyaviy xatarlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, likvidlikni optimal darajada ushlab turish faqat bankning ichki boshqaruv tizimiga emas, balki Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan monetar siyosatga ham bevosita bog'liqdir. Shu sababli banklar likvidlik ko'rsatkichlarini muntazam tahlil qilib, samarali boshqaruv choralarini ko'rishi zarur.

Tijorat banklari uchun likvidlik nafaqat moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, balki mijozlar bilan munosabatlarni mustahkamlash orqali mablag'larni jalb qilishda ham strategik ahamiyatga ega. Likvidligi yuqori bo'lgan banklar mijozlar talablarini o'z vaqtida qondirish imkoniyatiga ega bo'lib, moliya bozorida raqobatbardoshligini oshiradi. Aksincha, likvidlik riski mavjud bo'lgan banklarda xizmat ko'rsatish sifati pasayadi, mijozlarning ishonchi kamayadi va yangi mablag'larni jalb qilish imkoniyatlari cheklanadi.

Likvidligi yetarli bo'lgan banklar bozorda yuqori raqobatbardoshlikka ega bo'ladi. Ular kreditlar bo'yicha qulay shartlar, past foiz stavkalari va tezkor xizmat ko'rsatish orqali yangi mijozlarni jalb etadi.

Tijorat banklari likvidligini ta'minlash ko'plab ichki va tashqi omillarga bog'liq bo'lib, bu omillar banklarning moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy tizimdagi rolini belgilaydi. Ichki omillar sifatida aktiv va passivlar tarkibi, kredit siyosatining samaradorligi, boshqaruv sifati hamda xatarlarni boshqarish tizimi ajralib turadi. Tashqi omillar esa makroiqtisodiy beqarorlik, inflyatsiya darajasi, valyuta xatarlarining kuchayishi, Markaziy bankning pul-kredit siyosati hamda xalqaro moliya bozorlaridagi o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Bank likvidligi moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o'sishning muhim omili bo'lsa-da, uni ta'minlashda kredit portfeli sifati pastligi, tashqi xatarlar va iqtisodiy beqarorlik sababli murakkabliklar yuzaga keladi. Bunday xavflarni kamaytirish uchun banklar yuqori likvidli aktivlar ulushini oshirish, xatarlarni boshqarish tizimini takomillashtirish hamda tashqi o'zgarishlarga moslashuvchan boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqishi lozim.

Pul-kredit siyosatining samaradorligi bevosita bank tizimining likvidligiga bog'liq. Tijorat banklari yetarli likvidlikka ega bo'lgan taqdirda, Markaziy bank tomonidan belgilangan qayta moliyalashtirish stavkasi orqali monetar transmissiya mexanizmining to'liq ishlashi ta'minlanadi.

So'nggi yillarda AQSh Federal zaxira tizimi, Yevropa Markaziy banki va boshqa rivojlangan davlatlarning moliya muassasalari inflyatsion bosimni pasaytirish maqsadida pul-kredit sharoitlarini qat'iylashtirmoqda. Bu holat global moliyaviy oqimlar tuzilmasini o'zgartirib, rivojlanayotgan davlatlardagi tijorat banklarining likvidlik zaxiralariga bosim kuchayishiga olib kelmoqda. O'zbekiston ham bu global tendensiyalardan chetda qolmagan. Tashqi qarz bozorlaridagi moliyalashtirish

xarajatlarining oshishi, valyuta kursining yuqori o'zgaruvchanligi va import narxlarining ko'tarilishi mamlakat bank tizimi likvidligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Yana bir muhim omil — xalqaro bozorlardagi noaniqlik va geosiyosiy xatarlar. Energiya resurslari, logistika zanjirlari va savdo oqimlaridagi uzilishlar, shuningdek, mintaqaviy ziddiyatlar moliyaviy institutlarning ehtiyotkorligini kuchaytirib, likvid aktivlarga bo'lgan talabni oshirmoqda. Natijada tijorat banklari ko'proq likvid vositalarni ushlab turishga harakat qilmoqda, bu esa ularning kreditlash salohiyatini qisqartirmoqda.

O'z navbatida, Markaziy bank tomonidan olib borilayotgan barqaror monetar siyosat ham tijorat banklari likvidligiga xizmat qilmoqda. O'zbekistonda inflyatsion targetlash asosida olib borilayotgan pul-kredit siyosati bozordagi kutilmalarni barqarorlashtirib, tijorat banklariga uzoq muddatli likvidlikni rejalashtirish imkonini yaratmoqda. Shu bilan birga, Markaziy bank tomonidan joriy etilgan likvidlikni boshqarish vositalari banklar likvid holatini ta'minlashda muhim mexanizmlar sifatida ishlamoqda.

Tahlillardan kelib chiqadiki, tijorat banklari likvidligini samarali boshqarish uchun nafaqat ichki boshqaruv tizimlari, balki makroiqtisodiy muhit va tashqi moliya bozorlaridagi o'zgarishlar ham puxta tahlil qilinishi lozim. Moliyaviy texnologiyalarni keng joriy etish, real sektor bilan uzviy hamkorlikni kuchaytirish va xatarlarni diversifikatsiya qilish orqali tijorat banklari likvidlik barqarorligini mustahkamlashi mumkin.

Xulosa va takliflar.

Tijorat banklari uchun likvidlik — moliyaviy barqarorlik va uzoq muddatli rivojlanishning asosiy omili bo'lib, uning samarali boshqarilishi bankning iqtisodiy beqarorlikka chidamliligini oshiradi, investitsiya faoliyatini kengaytiradi va iqtisodiyotdagi nufuzini mustahkamlaydi.

Tijorat banklari likvidligining moliyaviy barqarorlik va uzoq muddatli rivojlanishdagi oʻrni quyidagi asosiy yoʻnalishlarda namoyon boʻladi:

Birinchidan, likvidligi yuqori boʻlgan banklar mijozlar talablarini oʻz vaqtida qondira oladi, bu esa bankning ishonchligini taʼminlab, mijozlar bazasi va depozitlar oqimining ortishiga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, likvid aktivlar yetarli boʻlganda bank moliyaviy risklarni kamaytiradi va kreditorlar oldidagi ishonchini mustahkamlaydi.

Uchinchidan, iqtisodiy beqarorlik yoki moliyaviy inqiroz sharoitida yetarli likvid aktivlarga ega boʻlgan banklar operatsion faoliyatini uzluksiz amalga oshirish imkoniyatiga ega boʻladi.

Toʻrtinchidan, likvidligi barqaror boʻlgan banklar qisqa muddatli majburiyatlarini likvid aktivlar hisobidan samarali tarzda qoplagan holda, uzoq muddatli investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda faol ishtirok eta oladi. Bu esa ularning moliyaviy barqarorligi va real

sektor bilan oʻzaro aloqalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, likvidlik yetishmovchiligi bankning moliyaviy barqarorligiga jiddiy xavf tugʻdiradi. Likvidlik tanqisligi natijasida mijozlar omonatlarini qaytarib olishga shoshiladi, bu esa bank aktivlarining qisqarishi va bankrotlik xavfining ortishiga olib keladi. Shu boisdan, Markaziy bank tijorat banklari likvidligini nazorat qilishda majburiy zaxira meʼyorlari, qayta moliyalashtirish stavkalari va ochiq bozor operatsiyalari kabi monetar instrumentlardan keng foydalanadi.

Demak, bank tizimi likvidligi nafaqat moliya bozori barqarorligi, balki iqtisodiyotning uzoq muddatli barqaror oʻsishi va pul-kredit siyosati samaradorligini taʼminlaydigan asosiy omildir. Shuning uchun Markaziy bank va tijorat banklari likvidlikni barqaror saqlash uchun doimiy monitoring, majburiy zaxiralar siyosatini samarali yuritish hamda moliya bozorlarida shaffoflikni taʼminlashga eʼtibor qaratishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Григорян Л.Т. Банковское дело. – М.: Финансы и статистика, 2021. – 412 с.
2. Mishkin F.S. *The Economics of Money, Banking, and Financial Markets*. – 12th ed. – New York: Pearson, 2019. – 736 p.
3. Cousins R. *Bank Asset and Liability Management*. – London: Palgrave Macmillan, 2020. – 354 p.
4. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki. "Tijorat banklari likvidligini boshqarish toʻgʻrisidagi nizom". – Toshkent, 2023.
5. Xamdamov B.X. *Bank ishi asoslari*. – T.: Iqtisodiyot, 2022. – 280 b.
6. Diamond D.W., Dybvig P.H. *Bank Runs, Deposit Insurance, and Liquidity*. – *Journal of Political Economy*, 2020, Vol. 123(6), p. 1513–1535.
7. Berger A.N., Bouwman C.H.S. *Bank Liquidity Creation and Financial Stability*. – *Journal of Financial Economics*, 2017, Vol. 122(3), p. 379–398.
8. Demirgüç-Kunt A., Kane E. *Deposit Insurance around the World: A Comprehensive Database*. – World Bank Policy Research, 2019.
9. Borio C., Zhu H. *Capital Regulation, Risk-Taking and Monetary Policy: A Missing Link in the Transmission Mechanism?* – BIS Working Papers, 2021.